



## PSIXOLOGIZMLARNING ADABIY JANR RIVOJIDAGI O'RNI

Akhtam Rajabov

Bukhara institute of natural resources management Senior teacher, Uzbekistan

E-mail: [rajabovaxtam178@gmail.com](mailto:rajabovaxtam178@gmail.com)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada bugungi adabiyotshunoslikda dolzARB bo'lgan masalalardan biri - psixologizm tushunchasi hamda ushbu masalaning tarixi borasida fikr yuritilgan. Psixologizmning adabiyotshunoslik ilmiga kirib kelishi, bu sohada amalga oshirilgan ilk tadqiqotlar, o 'zbek adabiyotshunos olimlarining nazariy qarashlariga alohida to'xtab o'tilgan hamda psixologizm va psixologik tahlil terminlariga munosabat bildirilgan.

**Kalit so'zlar:** psixologizm, ruhiyat, psixologik tahlil, psixoanaliz, analitikprinsip, dinamikprinsip, tipologikprinsip, lirika, drama.

**Аннотация:** В статье рассматривается один из актуальных вопросов современной литературы - концепция художественной психологии и история вопроса, введение художественной психологии в изучение литературы, первые исследования в этой области, теоретические взгляды узбекских литературоведов, трактовка терминов «художественная психология» и «психологический анализ».

**Ключевые слова:** психологизм, психологический анализ, психоанализ, аналитический принцип, динамический принцип, типологический принцип, лирика, драма.

**Abstract:** The article examines one of the most pressing issues of modern literature - the concept of artistic psychology and the history of the issue. The introduction of artistic psychology into the study of literature, the first studies in this area, the theoretical views of Uzbek literary scholars, the interpretation of the terms "artistic psychology" and "psychological analysis".

**Keywords:** psychologism, psychological analysis, psychoanalysis, analytical principle, dynamic principle, typological principle, lyrics, drama.

Bugungi kunda zamonaviy filologiya ilmi emotSIONAL-hissiy mazmunning (psixologizmning) badiiy asar struktur-qurilishidagi roli va ahamiyatiga katta e'tibor qaratmoqda. Tadqiqotchi olimlar tomonidan ta'kidlanganidek, badiiy matnda doimo so'zlovchining nutqi mavjud bo'lgan til normalariga muvofiq ravishda oddiygina berilmaydi, balki u badiiy tasvirlanadi. Ayni vaqtida tasvir qoidaga binoan, nutqning nafaqat verbal moddiy qiymatliliginini, balki shuningdek, u bilan bog'langan ya'ni paralingvistik omillarni (imo-ishora, mimika va ularning ko'rsatmalarini) ham o'zida jamlay oladi. Har ikkisi ham so'zlar orqali tasvir etiladiki, paralingvistik kodning vositalarini lingvistik kodning vositalari bilan bera olishni yoki bir semiotik tizimlarning boshqalariga o'tuvchanligini (ulanishini) aks ettiradi. Kitobxonning qahramon ichki ruhiy holatiga bevosita guvoh bo'lishiga imkoniyat yaratadigan ayrim uslubiy usullar ham badiiy matnning asosiy qirrasini



tashkil etadi. Bu kabi jarayon tasvirlari ikki yo'l bilan ya'ni muallifning "aralashuviz" kechadigan ichki monolog, shuningdek, muallif hamda qahramon ovozlarining o'zining holati bo'limgan ko'chirma gapda (bunda bilvosita muallif nutqi) aralashmasi orqali yuzaga chiqarish mumkin.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, XIX asrning oxirgi choragida folklor va yozma adabiyotni tadqiq etishda psixologik maktabi ilmiy yo'nalishi paydo bo'ldi. Bu yo'nalishning asoschisi nemis folklorchisi, psixolog va faylasufi Vilhelm Vundt (1832-1920) dir. Ijodkorning ijod jarayonidagi psixologik holati to'g'risidagi ta'limot bu yo'nalishning asosidir. Vundt birinchilardan bo'lib miflarning yuzaga kelishi, poetik obrazlarning yaratilish jarayonini o'rghanadi. Vundt ijodiy jarayonlarda tush ko'rish va gallutsinatsiyalarga katta ahamiyat beradi. Uning nazariyasini bir qancha ijodkorlar o'z asarlarini yaratishda bevosita qo'llaydilar. Vundt nazariyasi psixologiyadagi freydizm yo'nalishining asoschisi Freydga katta ta'sir ko'rsatadi. Uning fikricha, atrofni qurshab olgan muhitni inson ongi tartibga soladi, badiiy ijod ijodkor ruhiy holatining mahsuli hisoblanadi. Shu bilan birga, ijod jarayoni inson ruhiy olamini boyitadi. Vundt nazariyasining ayrim jihatlari boshqa ijodkorlarning ayrim nazariyalari badiiy ijod masalasi subyektiv qarashlari, til va poeziyadagi ramziylik – obrazlilikning ahamiyatini ortiqcha baholash jihatidan bir-biriga o'xshab ketadi.

Xullas, psixologik maktab vakillari mavjud miflar turli xalqlar poeziyasida va diniy qarashlarida kishilarning uyqu, tush yoki gallutsinatsiya kabi turli ruhiy holatlari paytida yuzaga kelgan deb hisoblaydilar.<sup>1</sup>

Badiiy adabiyotda ichki nutqning jami uch xil ko'rinishi mavjud bo'lib, bular ichki diolog, ichki monolog hamda ichki luqma (replika)dir. Bular barchasi bir bo'lib ichki nutq vositasi sifatida shaxs ichki aloqalarining uzluksiz jarayonini tashkil qiladi.<sup>2</sup> Ichki nutq va uning ko'rinislari o'z navbatida badiiy asar psixologizmini kuchaytirishga xizmat qilib, asar uning qahramonlari ruhiyatini ochib berishda asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Yuqorida qayd etilgan uchala shaklning har biri o'ziga xos tarkibiy va semantik xususiyatlarga ega bo'lib, ular shaxs ruhiy olamida bajaradigan vazifalarida namoyon bo'ladi. Ichki nutqning eng sodda ko'rinishi bo'lmish – ichki replika – alohida, atroflicha qisqa, nutqqa aloqador bo'limgan jarayonlarda namoyon bo'luvchi o'zaro bog'liq bo'limgan so'zlar jamlanmasi yoki tashqi

<sup>1</sup> Хотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. Т.; "Ўқитувчи" 1983. Б. - 262.

<sup>2</sup> Синельникова Л. Н. Жизнь текста, или Текст жизни // - Луганск: Знание, - 2005. – Б. 54.



nutqni qabul qiluvchi shaxsning ichki izohi sifatida namoyon bo‘ladi.<sup>3</sup> Qisqa qilib aytganda, ma’lumotni qabul qiluvchi holat va vaziyatga nisbatan bir shaxsning emotsiyal baho berishi ichki replikani taqozo qiladi. O‘z navbatida baholash obyekti esa butun bir vaziyatning o‘zi yoki uning aynan shaxsning ruhiyatiga juda qattiq ta’sir qilgan qismi bo‘lishi mumkin. Ichki replika orqali muallif personajning aynan o‘sha ondagи ruhiy holat (xursandchilik, qayg‘u, taajjub, muhabbat yoki nafrat)ini ochib beradi.

Psixologik badiiy tasvir – ichki nutqning yana bir turi – ichki dialog bo‘lib, dialog tarzida shakllantirilgan mulohazalar ketma-ketligini tashkil etadi. Ichki dialog xayolan ikki va undan ortiq shaxslar suhbati tarzida, ya’ni bir personajning ayni damda ikki (ba’zan undan ham ortiq) obraz sifatida tilga kirishidir. Ikkinchи dialog o‘tkir psixologik holat bo‘lib, unda shaxsning ikki pallaga ajralishi – shaxsiyat ikkilanovi sodir bo‘ladi. Ichki nutqning uchinchi ko‘rinishi ichki monolog bo‘lib, “personajning moddiylashmagan, o‘ziga qaratilgan va ichidagina kechuvchi nutqi; badiiy psixologizmning bevosa shakli. Shartli ravishda inson ongida kechayotgan o‘ylov (his etish) jarayoni sifatida qabul qilinadi”.<sup>4</sup> Ichki monolog esa ichki nutqning ko‘rinishining nisbatan murakkab shakli bo‘lib, u o‘quvchiga ikki xil usulda – ko‘chma ichki monolog hamda to‘g‘ridan-to‘g‘ri ichki monolog shaklida taqdim etilishi mumkin. Ko‘chma ichki monologda esa personajning ichida kechayotgan o‘y-xayollari, fikrlari muallif nutqi orqali bayon etilsa, to‘g‘ridan-to‘g‘ri ichki nutqda qahramonning ichki monologi to‘laligicha o‘z tilidan aytib o‘tiladi va jonli nutqda mavjud bo‘lgan konstruksiya saqlab qolinadi. Ular og‘zaki qisqartmalar, his-tuyg‘uni yanada ta’sirli tasvirlovchi ko‘plab undov, so‘roq va tinish belgilari (pauza vositasi), qisqa jumlalar, takror so‘zlar, tugallanmagan va mantiqsiz iboralardan iboratdir.

O‘z navbatida ichki monolog o‘quvchiga qanday ma’lumotni yetkazib berayotganiga qarab monolog-muhokama, monolog-mulohaza, monolog-xotira kabi turlarga ajraladi. Monolog-xotiralar orqali personaj haqidagi ijtimoiy-psixologik hamda avtobiografik ma’lumotlarni olsak, monolog-mulohaza hamda monolog-muhokama orqali personajning tashqi muhit va olamga bo‘lgan munosabatini bilishimiz mumkin bo‘ladi. Ko‘p hollarda adabiyotshunos olimlar tomonidan ichki monolog va ong oqimi kabi tushunchalar bir qatorga qo‘yib kelinadi. Adabiyotshunos olim D.Quronov ijodkor ong oqimini ichki monolog

<sup>3</sup> Ўша асар, Б. 62.

<sup>4</sup> Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2010. – Б. 11.



imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalanib, ruhiy jarayonlarni imkon boricha haqiqatga yaqin tasvirlash borasida samarali izlanishlar natijasi hamda ichki monologning shartlilik asosida mantiq qoliqlariga solinmagan ko‘rinishi deya e’tirof etadi; realistik adabiyot uchun esa sinonim terminlar sifatida qo‘llaydi.<sup>5</sup>

Asarda badiiylikni ta’minlovchi mezon sifatida qahramonlar ruhiy holatining tasvir etilishidir. Badiiy asarni psixologizm nuqtayi nazaridan tadqiq etish adabiyotshunoslik va psixologiya fanlarining nazariy jihatdan takomillashuviga yordam beradi. Asarda qahramonlarning jonli obrazini yarata olish badiiylikning asosi hisoblanadi. Shuningdek, ularni psixologik tahlil etish orqali ijodkor va asar personajlarining ruhiy holati bo‘yicha aniq tasavvurga ega bo‘lish mumkin.

Psixolog olimlardan biri M.G.Yaroshevskiy “...San’at namunalarida insonning inson tomonidan idrok qilinishi va boshqa ruhiy jarayonlar, ayni zamonda asar qahramonlarining emas, balki asarning yaratuvchisi, muallifning ham xarakter xususiyatlari, xulq-atvori, tafakkuri, mayl va intilishlarini aks ettiradi”,<sup>6</sup> – deb yozadi.

Haqiqatan ham, ijodkor asar qahramonlarini yaratayotganda ularning hatti-harakati, holati va intilishlarini avvalo tasavvur qiladi, so‘ngra qalb kechinmasidan o‘tkazadi va aks ettiradi. Kitobxonning diqqat-e’tiborini real hayotda ro‘y berishi mumkin bo‘lgan, shuningdek, jamiyatdagi g‘ayrioddiy voqeа-hodisalarga, ular bilan birgalikda inson tabiatidagi muqaddas va yuksak his-tuyg‘ularga, payti kelib esa, atrof-borliqni tanib bo‘lmas darajada o‘zgartirib yuborishga qodir bo‘lgan oddiy doimiy ravishdagi kundalik ishlarga qaratadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Хотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. Т.; “Ўқитувчи” 1983. Б. - 262.
2. Синельникова Л. Н. Жизнь текста, или Текст жизни // - Луганск: Знание, - 2005. – Б. 54.
3. Ўша асар, Б. 62.
4. Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2010. – Б. 11.
5. Д.Куронов ва б. Адабиётшунослик луғати. Т.: Академнашр, 2013, 209-б.
6. Ярошевский, М. (1985). Психология творчество и творчество в психологии. (с. 14). Вопросы психологии.

<sup>5</sup> Д.Куронов ва б. Адабиётшунослик луғати. Т.: Академнашр, 2013, 209-б

<sup>6</sup> Ярошевский, М. (1985). Психология творчество и творчество в психологии. (с. 14). Вопросы психологии.



7. Rajabov, A., & Jalilova, L. J. (2021). Peculiarities of modern uzbek childrens literature (on the example of Khudoiberdi Tokhtaboyevs works). *Scientific reports of Bukhara State University*, 5(2), 169-177.
8. Jalilova, Lola J., and Rajabov A. Uktamovich. "Peculiar Features of Comedy Genre in Uzbek Literature (on the Example of Utkir Khashimov`S Works)." *International Journal on Integrated Education*, vol. 4, no. 11, 2021, pp. 30-33, doi:[10.31149/ijie.v4i11.2360](https://doi.org/10.31149/ijie.v4i11.2360).
9. Rajabov, A. O. "Jalilova LJ Psikhologizmi v detskoy literature." *Modern Scientific Research Journal. London, United Kingdom* 10 (2019): 360-365.
10. Rajabov Akham Uktamovich, & Jalilova Lola Jalilovna. (2022). THE DEPICTION OF THE TEENAGERS` SOCIAL LIFE IN "HARRY POTTER". *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact Factor: 7.429, 11(04), 108–114.* Retrieved from <http://www.gejournal.net/index.php/IJSSIR/article/view/402>.
11. Rajabov Akham Uktamovich, & Jalilova Lola Jalilovna. (2022). THE ROLE OF PSYCHOLOGISM IN THE DEVELOPMENT OF A LITERARY GENRE. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact Factor: 7.429, 11, 37–42.* Retrieved from <http://www.gejournal.net/index.php/IJSSIR/article/view/401>
12. Jalilova, Lola Jalilovna, and Rajabov Akhtam Uktamovich. "The Character of the Narrative and the Image of the Narrator in the Short Stories of Robert Benchley and James Thurber." (2020).
13. Jalilova Senior Teacher, Lola. "NATIONAL SPECIFICITY OF AMERICAN SATIRICAL SHORT STORIES." *Philology Matters* 2020.2 (2020): 40-50.
13. Жалилова, Лола Жалиловна. "Сатира А. Бирса в свете фольклорных и литературных традиций." На пересечении языков и культур. Актуальные вопросы гуманитарного знания 1 (2016): 295-299.